

## ANGOR TUMANI LEKSIKONIDA UCHROVCHI FONETIK IZOGLOSSALAR

*Termiz davlat universiteti magistranti*

**Norboyeva Nafisa**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Angor tumanining ba'zi mahallalarda uchrovchi izoglossalar fonetik, morfologik, leksik jihatdan tahlil qilinadi. Navro'z, Navbahor, O'zbekiston. Tallashqon va Gilambob mahallarida uchrovchi fonetik izoglossalar xususiyatlariga alohida to'xtalib tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar :** sheva, dialekt, izoglossa, izofon, Navro'z mahllasi, so'zlovchi shevasi

**Abstrakt.** In this article, the isoglosses occurring in some neighborhoods of Angor district are analyzed from phonetic, morphological, and lexical perspectives. Special attention is given to the characteristics of phonetic isoglosses found in the Navruz, Navbahor, O'zbekiston, Tallashqon, and Gilambob neighborhoods, and they are analyzed separately.

**Keywords:** dialect, dialectology, isogloss, isophone, Navruz neighborhood, speaker's dialect

Har bir hudud o'ziga xos dialektni va shevani tashkil etadi. Dialekt — sheva, logos — ta'limot, ya'ni sheva haqida ta'limot demakdir<sup>1</sup>. «Sheva» atamasi forscha so'z bo'lib, ovoz, til, so'zlashish, odat, yo'sin, ravish kabi ma'nolarni ifodalab, biror bir tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismidir. Lahja (arabcha so'z bo'lib, ifoda, so'z, sheva, ovoz kabi ma'nolarni ifodalaydi) shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yiindisidir.<sup>2</sup> Masalan, o'g'uz lahjasi, qipchoq lahjasi kabi. Mazkur atama ba'zan tor ma'noda, ya'ni sheva ma'nosida qo'llanilishi ham uchraydi. Masalan, Vodil qishloq lahjasi haqida bir necha so'z kabi.<sup>3</sup>

Dialektologiyada yana bir tushuncha bor unga to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Areal lingvistika fani zamonaviy qiyosiy tilshunoslik sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu soha bugungi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib bormoqda. Bu fanni o'rganishni uning tilshunoslik fanlari orasida tutgan o'rni, shuningdek, uning qanday fan ekanligini aniq belgilab olishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI, YOQUB SAIDOV Buxoro "Durdona" nashriyoti 2022

<sup>2</sup> O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI, YOQUB SAIDOV Buxoro "Durdona" nashriyoti 2022

<sup>3</sup> O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI, YOQUB SAIDOV Buxoro "Durdona" nashriyoti 2022

<sup>4</sup> Quvondiq Olloyorov Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari TOSHKENT - 2020

Mazkur yo'nalish qiyosiy tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan bo'lsa ham, bu sohada ancha sezilarli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramay, tilshunoslikda areal lingvistika tushunchasini qanday talqin qilish borasida aniq bir to'xtamga kelingan emas<sup>5</sup>. Shuningdek, xuddi ana shu sohaga taalluqli bo'lgan lingvistik geografiya (lingvogeografiya) va arealogiya, dialektografiya terminlari talqini masalasida ham muayyan munozaralar mavjud<sup>6</sup>.

Jumladan, O.S.Axmanova tomidan tayyorlangan Lingvistik terminlar lug'atida areal lingvistikani hududiy tilshunoslik, lingvistik geografiyani esa dialektografiya deya talqin qilinadi. Biz ushbu kursga asos bo'lgan areal lingvistika terminining nomlanishi borasida mulohaza yuritadigan bo'lsak, uning asosida: lotincha areal maydon, hudud hamda lingvistika tilshunoslik ma'nosidagi atamalar yotganligini qayd qilishimiz mumkin<sup>7</sup>.

Xususan, biz tadqiqot olib brogan Navro'z, Navbahor, O'zbekiston. Tallashqon va Gilambob mahallarida ham areal lingvistikaga doir tushunchalar bor. Dialektal izoglossalarga o'tishdan oldin bu terminiga izoh berib o'tsak. Izoglossa arealogik tadqiqotning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, o'zaro o'xshash hodisa (qonuniyat)ning tarqalish (qo'llanish) nuqtalarini va bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqni hamda hodisaning tarqalish chegaralarini xaritada belgilovchi chiziq yoki belgi<sup>8</sup>. Izoglossani nima asosida o'tkazish (izoglossa mazmuni, tarqalishi, o'rganilayotgan hodisa yoki qonuniyat) arel tilshunoslikda juda katta ahamiyatga ega. Tavsifiy (dialektolografik) ishlarda, ya'ni ma'lum bir hududdagi shevalar tavsiflanganda, odatda, shu shevaning o'lchov mezoni sifatida qabul qilingan etalondan yoki boshqa bir shevadani farqlovchi katta-kichik har qanday farq qayd etib boriladi<sup>9</sup>. Lisoniy hodisaning (qonuniyatning) tabiatiga muvofiq ravishda izoglossa har xil, jumladan, fonetik fonologik, morfemik, morfologik, leksik, sintaktik bo'lishi mumkin<sup>10</sup>. Mahallalar kesimida yig'ilgan izoglossalar *kiyim-kechak, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligiga, moddiy-maishiy hayot* bilan bog'liq leksemalarga ajratilgan. Ular fonetik, morfologik, leksik o'zgarishga uchrovchi izoglossalarga ko'ra farqlanadi.

Odatda izoglossa bitta hodisa asosida belgilanadi. Agar ikki hodisa bir-biri bilan (sababoqibat munosabati) o'zaro bog'langan bo'lsa, bunda ikki hodisa bitta izoglossa bilan berilishi mumkin (masalan: umuturkiy "a" ning yarim lablangan "o"ga o'tishi va tilda "o" fonemasining mavjudligi). Agar hodisalar orasida sabab-oqibat munosabatlari mavjud bo'lmasa, bunday hodisalar alohida-alohida izoglossalar bilan berilishi lozim (masalan: tilda yarim lablangan "o" fonemasining mavjudligi va umuturkiy "a"ning

<sup>5</sup> Гуров Н.В., Зограф А. «Ареальное языкознание: предмет и метод (на материале языков Южной Азии)»

<sup>6</sup> Quvondiq Olloyorov Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari TOSHKENT - 2020

<sup>7</sup> Quvondiq Olloyorov Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari TOSHKENT - 2020

<sup>8</sup> IZOGLOSSA Po'latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O'zbekiston milliy universiteti.

<sup>9</sup> IZOGLOSSA Po'latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O'zbekiston milliy universiteti

<sup>10</sup> IZOGLOSSA Po'latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O'zbekiston milliy universiteti

“o”ga o’tishi<sup>11</sup>.Angor tumanidagi ba’zi dialektik izoglossalarda ham a ning o ga o’tishini ko’rishimiz mumkin: paxta-poxta,taxta-toxta.

Umuman, xulosa qilib aytish mumkinki, mos hodisalarning u yoki bu a’zolari, bo’lagi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas kartasidagi chiziq izoglossadir<sup>12</sup>.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. IZOGLOSSA Po‘latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O‘zbekiston milliy universiteti
2. Quvondiq Olloyorov Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari TOSHKENT - 2020
3. Гуров Н.В., Зограф А. «Ареальное языкознание: предмет и метод (на материале языков Южной Азии)»
4. O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI, YOQUB SAIDOV Buxoro “Durdona” nashriyoti 2022
5. Pulatova S.M. Areal linguistics. Globe. 2020
6. Rahmatovich A. A. Po‘latova S.M. Vobkent tumani shevasida so‘zning morfemik tarkibi //scientific reports of bukhara state university. – c. 123.
7. Akhmedov A. R., qizi Po‘latova S. M. O ‘zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish //Conferences. – 2021.

<sup>11</sup> IZOGLOSSA Po‘latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O‘zbekiston milliy universiteti

<sup>12</sup> IZOGLOSSA Po‘latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O‘zbekiston milliy universiteti